



Elyor YULDASHEV,

Urganch innovatsiyalar universiteti o'qituvchisi, UrDU mustaqil tadqiqotchisi,

E-mail: yuldashevelyor@urgiu.uz

Filologiya fanlari doktori D.Yuldashev taqrizi asosida

KOMIL XORAZMIY IJODIDAGI O'XSHATISHLAR TAHLILI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Komil Xorazmiy ijodida qo'llangan o'xshatishlar, xususan, ularni hosil qiluvchi leksik va grammatik vositalar, ularning o'xshatish etaloniga ko'ra tasnifi xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Komil Xorazmiy, o'xshatish, analogiya, lingvopoetika, asos, etalon, tashbeh, komparativ tropalar.

ANALYSIS OF SIMILES IN THE WORKS OF KOMIL KHOREZMI

Annotation

This article discusses the use of similes in the works of Komil Khorezmi, with particular attention to the lexical and grammatical means by which they are formed, as well as their classification based on the standard of comparison.

Key words: Komil Khorezmi, simile, analogy, linguopoetics, base, standard, tashbeh, comparative tropes.

АНАЛИЗ СРАВНЕНИЙ В ТВОРЧЕСТВЕ КОМИЛА ХОРЕЗМИ

Аннотация

В данной статье рассматриваются сравнения, используемые в творчестве Комила Хорезми, в частности, лексические и грамматические средства их образования, а также классификация сравнений в зависимости от эталона.

Ключевые слова: Комил Хорезми, сравнение, аналогия, лингвопоэтика, основа, эталон, ташбех, сравнительные тропы.

Kirish. O'xshatish – analogiya tasviriy ifodaning eng qadimiy shakllaridan bo'lib, Aristotel poeziyasi o'xshatish san'ati deb ataydi. Uning fikricha, inson boshqa mavjudotlardan o'xshatish qobiliyatiga ega ekanligi bilan ham farqlanadi, hatto dastlabki bilimlarni u o'xshatishdan oladi va bu jarayon samaralari barchaga huzur bag'ishlaydi. Simile (o'xshatish) terminini Aristotel imago tarzida qo'llagan, uzoq yillar davomida o'xshatish notiqlik (ritorika)da nutq vositasi tarzida atroflacha o'rganilgan, lekin uning grammatik tomonlari tadqiqi ancha orqada qolgan. Mantiq fanidagi analogiyaga xulosa chiqarishning maxsus shakli sifatida qarab, N.Mahmudov quyidagi izohni qayd qiladi: "Analogiya deb o'xshatish orqali bir belgining ikki buyumda borligini aniqlab, bu buyumlarning boshqa o'xshash belgilariga ega ekanligini ko'rsatishga aytiladi. Birinchi narsa yoki hodisaning hamma belgilari biz uchun tanish. Ikkinchi narsa yoki hodisaning faqat ba'zi bir belgilarinagina bilamiz. Biz bunday vaqtda bu ikki narsa yoki hodisani bir-biriga o'xshatamiz" [5].

Rus tilshunosligida o'xshatish tahliliga oid tadqiqotlar XVIII asrda yuzaga kelgan. Jumladan, M.V.Lomonosov birinchilardan bo'lib mazkur muammoni ritorik qatlamda, shuningdek, grammatik qatlam nuqtayi nazaridan ham o'rganadi [1]. XIX asr boshlaridan tadqiqotchilar o'xshatishning mohiyatini tadqiq qilishga, XX asrda esa o'xshatishning sabablari hamda turli xalqlardagi o'xshatishlarning o'xshash va farqli jihatlarga e'tibor qaratildi. Aytish mumkinki, ayni shu davr tasviriy o'xshatishga F.I.Buslayeva, A.N.Veselovskiy, A.A.Potebnya kabi olimlar nomlari bilan bog'liq yangicha yondashuvni boshlab berdi. Jumladan, A.A.Potebnya "bugungi olimlari oldida til va tafakkurning rivojlanishida o'xshatish shakllarining paydo bo'lishi sabab va omillarini aniqlash vazifasi turibdi", deb qayd qilgan edi [9]. Tilshunoslikda keng ma'noda qo'llanuvchi "funktional yondashuv" (uslubiy figura va troplarining mohiyatini anglashga imkon beradigan yondashuv) o'xshatishga nisbatan uning badiiy muloqotni amalga oshirishdagi roli va vazifasi nuqtayi nazaridan qarash demakdir. V.M.Jirmunskiy bu holatni "jiddiy tahlil u yoki bu badiiy san'atni qayd etish bilan cheklanmasdan, o'sha san'atning estetik funksiyasi, mohiyati, ayni shu san'at nimani ifodalayotganini tushunishni nazarda tutadi" tarzida izohlaydi [2]. O'xshatish badiiy matnda kitobxon yoki tinglovchiga representativ (informatsiya yetkazish),

ekspressiv (informatsiyaga hissiy munosabatni ifodalash), appelyativ (o'quvchiga muayyan ta'sir o'tkazish) maqsadlarning hammasiga birdek xizmat qiladi. J.Lakoff va M.Jonsonlar nazariyasiga ko'ra, inson ongidagi konseptual tizim (bilimlar jami) bevosita tajriba orqali erishilgan konseptlar asosida vujudga keladi [3]. Bu esa yangi bilimlar oldingi bilimlar asosida hosil qilinadi, demakdir.

Metodologiya. Darhaqiqat, har qanday badiiy matnning lingvopoetik tahlilining metodologiyasi dialektik tafakkur qonuniyatlariga asoslanadi. Jumladan, bu jarayonda 1) shakl va mazmun birligi; 2) makon va zamon birligi; 3) xususiylikdan umumiylikka o'tish kabi bir qancha tamoyillarga tayaniladi. Tahlil usullari sifatida esa badiiy matn tahlili metodistlari tavsiyasiga ko'ra, lisoniy tabdil, matn variantlarini qiyoslash, lug'atlarga asoslanish, lisoniy birliklar indeksini tuzish kabilar tavsiya qilinadi [12]. Ushbu maqolada biz Komil nazmda qo'llangan o'xshatishlarning o'ziga xosliklarini ochib berishda shakl va mazmun birligi tamoyiliga asoslandik hamda lisoniy tabdil usuli (bu usuldan asar tilining badiiyligi va muallif mahoratini aniqlashda foydalanildi) va lug'atlarga asoslanish usuli (bu usuldan Komil she'rlaridagi ayrim so'z va iboralarning ma'nosini izohlashda foydalanildi)ga tayandik. Shuningdek, har qanday badiiy asar lingvopoetik tahlili jarayonida asardagi lisoniy birliklarning indeksini tuzib chiqish talabini qo'llab-quvvatlaymiz.

Muhokama va natijalar. O'xshatishlar dunyo filologiya ilmidagi, to'g'rirog'i, Panini grammatikasida (er.av. IV asr) poetik vosita sifatida qaralgan va u to'rt unsurdan tashkil topishi ta'kidlangan [8]. O'zbek tilshunosligida o'xshatishning ilk tadqiqotchisi – M.Mukarramov o'xshatishning uch asosdan iboratligi, o'xshatiluvchi obyekt va o'xshovchi obraz o'xshatishning asosi ekanligi hamda o'xshatish vositasi asos sifatida hisobga olinmasligini ta'kidlaydi [7]. O'xshatishlar haqida maxsus tadqiqot olib borgan D.Xudoyberganova o'xshatishlar to'rt komponentdan iborat ekanligini, ayrim o'xshatish konstruksiyalarida bu komponentlarning biri uslub talabi bilan ifodalanmay qolishini ko'rsatadi [11].

O'xshatish hosil qiluvchi leksik vositalar: kibi (kabi), go'yo (go'yoyi), yanglig' (yonglig'), misli, o'ylaki (o'ylakim), navi'kim, sifat kabilar. Quyida ushbu vositalar ishtirokiga "Комил. Девон"dan bittadan misol keltiramiz (maqoladagi

barcha misollar ushbu devondan olingani uchun faqat beti ko'rsatildi):

- Aylaguncha san kibi Iso nishon birla vido',
Qilg'oy erdim kosh man dilxasta jon birla vido'... (90);
Ayirmassen ko'zung mir'oti husnidin dame, go'yo –
Yering shakkariston-u, ham taoming shakkar, ey to'ti...
(164);
Tun-u kun tor yanglig' yor edum tanbur-u qonuna,
Navo qilsam, navo bandan judo ul sozlardurlar... (57);
Ashhabing g'uboridin, ey Azizi mulki Misr,
Ko'zlarim qilib biyno, misli piri Kan'on qil... (113);
Iki gul o'ylaki bir shoxdin ochilmishdur,
Fig'onim ayladilar bulbulona ul iki sho'x... (51);
Komil ustiga qilur g'amalar hujum ul nav'kim,
Lashkari Sayyid Muhammadshoh qo'ng'iro't ustina...
(151);
Ajal o'qidin qutulmag'ungdur, agar Masihosifat
maqoming... (62)
2. O'xshatish hosil qiluvchi grammatik vositalardir: -day
(-dek), -vash, -cha, -ona, -so, -omuz, -namo, -yi kabilar. Quyida
ushbu vositalarga bittadan misol keltiramiz:
Buxl zangini qira olmas temirday ko'nglidin,
Gar itiklik ichra bo'lsa o'ylakim so'hon, so'zung... (108);
Bo'l tajarrudpesha, qat' aylab taalluq rishtasin,
Gar chiqay desang Masihodek samuvot ustina... (151);
Munavvar bo'ldi hajrida qarorg'on baytul-ahzonim,
Chu ul yusufvashim ruxsor ochib, xurshidson keldi...
(159);
Ulki qilmaydur maoni bahrig'a g'avvosliq,
Ko'rmagay minchoqcha gar bo'lsa durri g'alton
so'zung... (108);
Mani gado nechuk istay alar tamoshosin,
Harifi bazmgahi xisravona ul iki sho'x... (51);
Quyosh, quyosh, quyoshoso jamolin ul dilbar,
Ochib, ochib, ochib olamni ayladi anvar... (203);
Nigohi marhamatomizing etma kam yiroqdinkim,
Mani mahjur xud qurbing'a yetmakning yo'q imkoni...
(161);
Masihoyi labi anfosidin jon topg'usi jismim,
Nechukkim subhidamdin bog' erur ruhi ravon, g'uncha...
(148);
Chun anda bo'ldi yuz-u la'ling aksi jilvanamo,
Ko'rar yuzin gul o'zin la'lnob oyina... (145);
Dili roston zeri koxi balo,
Alifvor gashta sutun, alg'iyos... (41).
Yuqoridagi o'xshatishlarda inson holati yorqin
ifodalangan va o'y-kechinmalarning narsa-hodisaga munosabati
orqali aniq ta'riflangan. Ayrim o'rinlarda bunday o'xshatishlar
personaj kayfiyatini ko'rsatuvchi, unga bir paytlar sodir bo'lgan
allaqanday voqeaga eslatib turuvchi vosita vazifasini bajargan.
Hech kimga sir emaski, bugungi lingvokulturologik
tadqiqotlarda o'xshatishlarga katta e'tibor berilmoqda. Jumladan,
V.A.Maslova "muayyan xalqning obrazli tafakkur tarzi, xususan,
o'sha xalq tilida qo'llanuvchi o'xshatishlarda ham yaqqol
namoyon bo'lishi"ni ta'kidlaydi [4]. Olimaning bu fikrini
D.Xudoyberganova ham tasdiqlaydi: "O'zbek tili
o'xshatishlarning izohli lug'ati" uchun yig'ilgan materiallar
shundan dalolat beradiki, xalqning muayyan predmet, belgi,
harakat-holatga munosabati, assosiativ fikrlash tarzi
o'xshatishlarda ham namoyon bo'ladi... o'zbek tilida so'zlovchi
til egalari ko'proq insonning harakat-holatini obrazli tarzda
ifodalash"ga moyil [11].
Ma'lumki, har qanday o'xshatishda o'xshatish etaloni –
o'xshatish obrazi alohida ahamiyatga ega. "Bu unsur
o'xshatishning markazini, mag'zini tashkil etadi, boshqa unsurlar
(o'xshatish subyekti, o'xshatish asosi) ayni shu etalon atrofida
birlashadi. Ayni paytda boshqa unsurlar implitsit ifodalana olgani
holda o'xshatish etaloni faqat eksplitsit ifodalanmog'i shart,
aniqroq aytganda, o'xshatish etaloni bevosita lisoniy ifodaga ega
bo'lmasa, o'xshatish mazmunidagi ibora shakllana olmaydi. Eng
muhammi shuki, xalqning dunyoni tasavvur etishi va anglashidagi
o'ziga xoslik, ya'ni milliy-madaniy va milliy-konnotativ
ma'lumot bevosita ayni shu o'xshatish etalonida tajassum topadi
[6]".

Biz yuqoridagi fikrlarga asoslangan holda Komil
Xorazmiy devonidagi xalqning milliy obrazli tafakkur tarzining
mahsuli sanaluvchi o'xshatishlarni etalonlariga asoslangan holda
quyidagicha mazmuniy guruhlariga ajratishni ma'qul topdik:

- Jonli narsalarga o'xshatish:
a) insonlar – bu tip aksariyat o'xshatishlarda o'xshatish
etaloni sifatida "Komil, Navoiy, Masih, Ya'qub, Yusuf, Piri
Kan'on, Halil, Qorun, Xisrav, Layli, Majnun" kabi real tarixiy
shaxslar, payg'ambarlar va adabiy qahramonlar qatnashgan.
Masalan: Komildek rozi-yu sobir bo'lub (28), Masihoyonglig'
mo'jizbayon (159), Qorundek o'lsa maxzaning (208), Majnundek
subh-u shom yig'lag'uchi (79), yig'laram Ya'qubdek (118),
yusufvashim kelajak (99), hiloloso nihon ul ikki qosh (76),
Xisravona ul iki sho'x (51) kabi.
Komilning ayrim misralarida atoqli otlar bilan birga,
"atfol, gado, o'lik, mardum, begona" kabi turdosh leksik birliklar
o'xshatish etaloni sifatida qatnashgan: atfoldek yig'lar (45),
gadodekki dargohi sulton aro (25), o'lukoso og'iz qurubon (203),
ko'z uyida mardumdek makon etkil (112) kabilar.
Shuningdek, shoir bir qancha o'xshatishlarida "men
(man), sen (san), u (o)" kishilik olmoshlarini o'xshatish etaloni
sifatida faol qo'llagan: vafo bog'ida mendek aylamaydur oshiyon
(111), seningdek diliston keldi (159), oningdek rayhon (134)
kabilar.
b) hayvonlar – bu tip o'xshatishlarda shoir "andalib,
bulbul, mo'r, qush (qanotli qush, gulshan qushlari), kabki dari,
parvona, miyno" kabilarni o'xshatish etaloni sifatida faol va
o'rinli qo'llaydi: oh-u fig'on andalibdek (135), bulbuldek shaydo
o'ldilar (115), mo'rdek ojiz etdi (128), qushdek qilmog'ing parvoz
(163), gulshan qushlari yanglig' chiqarg'ay bol-u par (133), kabki
daridek yurushing (97), parvonadek aylanib (107), miyno yonglig'
etgil qulqul (162) kabilar.
2. Jonsiz narsa-tushunchalar:
a) aniq narsalar o'xshatish etaloni sifatida tanlangan
misra-baytlarda Komil ba'zan "ko'z, lab, qomat, qad, xat (sabz
xati)" kabi inson tana a'zolari (somatizm)laridan:
Ko'zumdek nedin bo'ldi labrez ashk,
Labingg'a emas bo'lsa sog'ar fido... (21);
Qadingdek yo'q nihole, lablaringdek g'unchay xandon,
Qadi sarvi xiromonim, labi gulbargi xandonim... (171)
kabi;
ba'zan "gul, g'uncha, lola (lola bargi), suman, sarv,
za'faron" kabi o'simliklardan:
Bu gulshan ichra xandon bo'lmoq etsa orzu guldek,
Topib subhi jamolin, qilsun oni imtihon g'uncha... (148)
Gulshani bazmim aro zulfi sumanso kelajak,
Og'zi g'uncha, yuzi gul, qomati zebo kelajak... (100)
kabi;
ba'zan "quyosh, xurshid, mehr, yulduz (kavokib), charx,
shafaq, shabnam, bulut (abr), qyun, zarra, unsur" kabi osmon
jismlari va tabiat hodisalarini ifodalovchi tushunchalardan:
quyoshdek yuz (159), bulutdek tiyralik bo'lsa (131) kabi;
ba'zan "minchoq, alif, jom, o'q, girihgir, temir, la'l, xum,
oyina, simob, ko'zgu, shisha, sham, tor, guhar, nigin" kabi
kundalik turmushimizdagi real jihozlardan juda faol va mohirona
foydalana olgan: minchoqcha durri g'alton so'z (108), mahfuz
o'lay xumdek (149), siymobdek iztirob aylar (152), guhar
yonglig' e'tibor (23), nigin yonglig' yuz qaro qildi (18) kabilar.
b) mavhum tushunchalar – bu tip o'xshatishlarda shoir
"o'tlug' ko'ngul, Iso nafasi, umr, baxt, ruh, visol, yolg'on, pari,
hur-u g'ilmon, so'z, maqom, Falotun hikmati, nigoh, marhamat,
jilva" kabi tushunchalarni o'xshatish etaloni sifatida mahorat bilan
qo'llagan va tashbehning go'zal namunalari yaratgan: o'tlig'
ko'nguldek oh chekmoq (66), anfosi Isavidek jon bermoq (121),
umrdek shitob o'lmish (79), ruhdek maqom tutmoq (221), hur-u
g'ilmon yonglig' aylab ijtimoi' (91), qomating yonglig' ravon
ermas (75), mardumdek manzil-u makon etkil (112) kabi.
d) o'rin-joy – Komil Xorazmiy ba'zan o'xshatish etaloni
sifatida "Farqad, changaliston, jamol bog'i, gulshan uyi" kabi
o'rin-joy nomlari va otlaridan foydalangan: du chashmi man du
Farqad dod (55), changalistoncha yo'q Mahmud (23), jamoling
bog'idek rayyon (171), gulshan uyidek bom-u dar bo'lg'ay (110)
kabi.

e) harakat-holat – bu tip o'xshatishlarda shoir “vido qilmoq, munglashmoq, ravshan etmoq, adam qilmoq, zavar bo'lmoq, ko'zgu bo'lmoq, oftob bo'lmoq” kabi harakat-holat fe'llarini o'xshatish etaloni sifatida mohirona istifoda etgan: xazon birla vido' qilg'ondek (90), munglashgudek yor-u ulfat (19), sham'i nujum ravshan etkondek (216), vujudimni go'yo adam qildilo (156), shomimg'a misli oftob o'lmish (79) kabi.

f) Komil ba'zan butun bir jarayonni o'xshatish uchun etalon sifatida tanlagan, ya'ni bunda aksariyat hollarda butun bir gap etalon vazifasini o'taydi:

Xoni vaslig'a raqibidin inoyat istamak,
Aylagan yonglig' gado ilgidagi nondin tama'... (88);
Komil ustiga qilur g'amlar hujum ul nav'kim,
Lashkari Sayyid Muhammadshoh qo'ng'iro't ustina...

(151);

Ayirmadi sitamin mandin, aylamish go'yo –
Jafosi tig'ig'a ko'ksun niyom ul gulrux... (50) kabi.

Xulosa. Xulosa sifatida aytish mumkinki, Komil Xorazmiy nazmida o'xshatishlar alohida o'rin tutadi. Shoir lirik qahramonning holati, tashqi belgi-xususiyatlarini yorqinroq ko'rsatish maqsadida o'xshatish (tashbeh)lardan mahorat bilan va o'rinli foydalangan. Individual-muallif o'xshatishlari shoirning badiiy-poetik talqini, badiiy didi mahsuli sifatida yuzaga kelgan o'xshatish bo'lib, originalligi, yangicha talqini bilan kishini o'ziga jalb qiladi va o'z navbatida, badiiy matnning badiiy emotsional-ekspressivligini oshiradi. Shoirning o'xshatish hosil qilishdagi mahorati oddiy, lekin betakror. Shoir o'xshatish etalonlarini ustozlar an'anasidan, tabiatdan, kundalik turmushning o'zidan topa olganki, beixtiyor kishini hayratda qoldirishi aniq. Qisqasi, Komil Xorazmiy devonidagi komparativ troplar sanaluvchi va obrazli tafakkur mahsuli bo'lmish o'xshatishlar ham batafsil o'rganilishi, ularning struktur-semantik hamda lingvopoetik xususiyatlari atroflicha tadqiq etilishi lozim.

ADABIYOTLAR

1. Григорьева О.Н. Стилистика русского языка. – Москва, 2000.
2. Жирмунский В.М. Введение в литературоведение. Курс лекций. – Москва: Едиториал УРСС, 2004.
3. Лакофф Дж., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живём // В книге: Теория метафоры. – Москва, 1990.
4. Маслова В.А. Человек в зеркале сравнения. // <http://www.gumer.info/biblioter-Burs/Linguist/maslova/06/php/>
5. Махмудов Н. Ўхшатишлар образли тафаккур маҳсули. // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2011. – №3.
6. Махмудов Н., Худойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Маънавият, 2013.
7. Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. – Тошкент, 1978.
8. Невелова С.Л. Вопросы поэтики древнеиндийского эпоса. Эпитет и сравнение. – Москва: Наука, 1979.
9. Потебня А.А. Теоретическая поэтика. – Москва: Высшая школа, 1990.
10. Умуркулов Б. Ўзбек бадий насрининг лингво-услубий шаклланиш асослари: Филол. фан. докт. (DSc) ...дисс. – Тошкент, 2020.
11. Худойберганова Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2013.
12. Шодмонов Э. Бадий матннинг лингвистик таҳлили. // “Мактабда ўзбек, рус тиллари ва адабиёти”. – Тошкент, 1991. – №8.
13. Ўринбоев Б., Қўнгулов Р., Лапасов Ж. Бадий текстнинг лингвистик таҳлили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1990.
14. Комил. Девон. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975.